

O‘ZBEKISTONDA SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIYA XIZMATINING TASHKIL ETILISHI: MUAMMOLAR VA TARIXIY Tajriba

Botirjonova Gulshoda Umidjon qizi

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

e-mail: gulshodabotirjonova@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0004-6660-3020>

UDK: 94(575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqola 1918-1925-yillarda O‘zbekistonda, xususan Farg‘ona vodiysi hududida, sanitariya-epidemiologiya xizmatining shakllanish va rivojlanish jarayonini tizimli ravishda o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqot tarixiy-tahliliy va qiyosiy metodlardan foydalangan holda, sanitariya tizimining huquqiy, tashkiliy va ilmiy-amaliy asoslarini tahlil qiladi. Bundan tashqari yuqumli kasalliklarning tarqalish omillari, hududiy xususiyatlar va davlat siyosatining epidemiologik barqarorlikni ta‘minlashdagi roli hamda misolida hududiy sharoitlar sanitariya xizmatining tez rivojlanishiga sabab bo‘lganligi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Sanitariya organlari, epidemiologik vaziyat, tif, bezgak, vabo, leyshmanioz, rishta, dizenteriya, sanitariya kordonlari, parazitologik va tropik stansiyalar, sanitariya otryadlari, chechakka qarshi emlash, Batirshin.

Аннотация: Данная статья посвящена системному изучению процессов формирования и развития санитарно-эпидемиологической службы в Узбекистане, в частности на территории Ферганской долины, в 1918–1925 годах. В исследовании с использованием историко-аналитического и сравнительного методов анализируются правовые, организационные и научно-практические основы функционирования санитарной системы. Кроме того, рассматриваются факторы распространения инфекционных заболеваний, региональные особенности и роль государственной политики в обеспечении эпидемиологической стабильности, а также показано, что специфические территориальные условия способствовали ускоренному развитию санитарной службы.

Ключевые слова: санитарные органы, эпидемиологическая обстановка, тиф, малярия, холера, лейшманиоз, ришта, дизентерия, санитарные кордоны, паразитологические и тропические станции, санитарные отряды, противооспенная вакцинация, Батыршин.

Abstract: This article is devoted to a systematic study of the formation and development of the sanitary and epidemiological service in Uzbekistan, particularly in the Fergana Valley, during 1918–1925. Using historical-analytical and comparative methods, the study examines the legal, organizational, and scientific-practical foundations of the sanitary system. In addition, the factors contributing to the spread of infectious diseases, regional characteristics, and the role of state policy in ensuring epidemiological stability are analyzed, demonstrating that specific territorial conditions facilitated the rapid development of sanitary services.

Keywords: sanitary authorities, epidemiological situation, typhus, malaria, cholera, leishmaniasis, dracunculiasis, dysentery, sanitary cordons, parasitological and tropical stations, sanitary detachments, smallpox vaccination, Batirshin.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). XIX asr oxiri XX asr boshlariga kelib O‘rta Osiyo, jumladan O‘zbekiston hududida markazlashgan sanitariya-epidemiologiya xizmati mavjud emas edi. Aholining yashash sharoitlari, ichimlik suvi ta‘minoti, oziq-ovqat mahsulotlarining sifati hamda gigiyenik muhit ustidan tizimli davlat nazorati yo‘lga qo‘yilmagan bo‘lib, bu holat yuqumli kasalliklarning keng tarqalishiga zamin

yaratgan. Mazkur davrda ayniqsa Farg'ona vodiysi epidemiologik jihatdan eng xavfli hududlardan biri sifatida ajralib turgan. Aholi zichligining yuqoriligi, agrar turmush tarzi, ochiq suv manbalaridan (ariq, hovuz va kanallar) ommaviy foydalanish hamda savdo yo'llari chorrahasida joylashganlik tifo, vabo, bezgak, dizenteriya kabi yuqumli kasalliklarning tez-tez avj olishiga sabab bo'lgan. Bu holat nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik uchun ham jiddiy tahdid tug'dirgan. Ushbu maqolaning maqsadi 1918-1925-yillarda O'zbekistonda, xususan aholi salomatligi eng og'ir ahvolda bo'lgan Farg'ona vodiysi viloyatlarida, sanitariya-epidemiologiya xizmatining huquqiy va tashkiliy poydevorini o'rganishdan iborat.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). XIX asr oxirlarida Turkiston o'lkasida mustamlaka ma'muriyati tomonidan amalga oshirilgan sanitariya choralari asosan favqulodda va vaqtinchalik xarakterga ega bo'lib, ular kasalliklar keng tarqalib bo'lgandan keyingina qo'llanilgan. Ushbu choralar tizimli profilaktika tamoyillariga asoslanmagani sababli epidemiyalarning oldini olishda kutilgan samarani bermagan. Natijada sanitariya masalalari bosqichma-bosqich davlat miqyosidagi muhim vazifalardan biriga aylana boshlagan.

Ruslar Turkiston o'lkasiga kelishidan oldin chechakka qarshi emlash bilan mahalliy aholi shug'ullangan, bu hunarni avloddan-avlodga o'tkazib kelishgan. Emlash materiali quyidagicha tayyorlangan: tabiiy chechak bilan kasallangan bemordan olingan qobiqlar paxtaga o'ralib, ichiga suv quyilgan kichik yog'och idishga solingan. Aynan shu suv bilan emlash amalga oshirilgan. Emlash joyi sifatida bosh va ko'rsatkich barmoqlar orasidagi qism tanlangan, u yerda avval kichik jarohat qilingan. Mahalliy aholi bu usuldan kam foydalangan, chunki ko'pincha emlashdan keyin o'lim holatlari kuzatilgan, shu sababli chechakni ko'proq qirg'izlar o'z bolalariga emlatgan. Chechakka qarshi emlash bilan shug'ullangan va tub aholini ilmiy tibbiy yordamga o'rgatishda katta ish qilgan birinchi shifokor Batirshin bo'lgan. [7; 45]. Batirshin birinchi bo'lib Toshkent shahrining tub

aholisini tibbiy yordamdan foydalanishga o'rgatdi, chechakka qarshi emlashni ham to'g'ri yo'lga qo'ydi. Xalq orasida asosan tibbiy xizmat bilan mahalliy tabiblar shug'ullangan va aksariyat holatda o'lim ko'rsatkichi yuqori bo'lgan.

1892-yilda tashkil etilgan tibbiyot jamiyati tomonidan vabo bilan kurashish borasida olib borilgan katta ishlarni alohida qayd etish lozim. Harbiy shifokorlar sanitariya tadbirlarida faol ishtirok etdilar. Shifokorlarning ilmiy-amaliy faoliyatida eng xavfli yuqumli kasalliklardan biri bo'lgan vabo bilan kurash muhim o'rin egalladi. 1898-yilda ushbu jamiyat a'zolari orasida ko'plab mashhur olimlar bo'lgan: P.F.Borovskiy, A. P. Fedchenko, I. A. Grekov, A. P. Shishov va boshqalar [10; 12]. Avvalo, tibbiyot jamiyati faoliyati mintaqada vabo kabi o'ta xavfli yuqumli kasalliklarga qarshi kurashning tizimli yo'lga qo'yilishida muhim o'rin tutgan. Bu jamiyat doirasida olib borilgan ishlar sanitariya tadbirlarining rejalashtirilgan va muvofiqlashtirilgan holda amalga oshirilganini ko'rsatadi. Ikkinchidan, harbiy shifokorlarning sanitariya tadbirlarida faol ishtiroki davlat va tibbiyot tuzilmalari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirgan hamda epidemiologik vaziyatni nazorat qilish imkoniyatlarini kengaytirgan. Bu holat vabo bilan kurashda tashkiliy va amaliy choralar samaradorligini oshirgan.

XX asr boshlarida Turkistonda sanitariya muassasalari faol rivojlandi. Kasalxonalar va poliklinikalar ochildi, uzoq hududlarda yordam ko'rsatadigan sanitariya poyezdlari tashkil etildi. Tibbiy kadrlarni tayyorlash, sanitariya shifokorlar va hamshiralarni tayyorlashga keng e'tibor qaratildi. Ilmiy ishlar infeksiyon kasalliklar epidemiologiyasini, oldini olish va davolash usullarini o'rganishni o'z ichiga oldi. Ayniqsa bezgak, vabo, ich terlama va boshqa keng tarqalgan infeksiyalar bilan kurashga e'tibor qaratildi. Maktablarda, bozorlar, suv manbalari va turar-joy hududlarida muntazam sanitariya tekshiruvlari o'tkazildi [10;16]. Shu nuqtai nazardan, mazkur davrda O'zbekistonda, xususan Farg'ona vodiysi hududida sanitariya-epidemiologiya xizmatining shakllanish jarayoni alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ta'sis etilgan sanitariya

muassasalari, normativ-huquqiy mexanizmlar va tashkiliy tuzilmalar keyingi o'n yilliklarda respublika sog'liqni saqlash tizimining rivojlanishiga mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilgan.

General-gubernator K. P. fon Kaufman tashabbusi bilan Turkistonda bezgakka qarshi kurash bo'yicha sanitariya tadbirlari tashkil etildi. A.P.Fedchenkoning ishlari muhim ahamiyatga ega bo'lib, u Turkistonda parazitlar kasalliklarni o'rgandi va bezgak plazmodiyasining oraliq xo'jayini Anopheles turiga mansub chivin ekanligini isbotladi. Shuningdek, gelmintoz kasalliklarining tarqalishini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar olib borildi. A.P.Fedchenko va uning shogirdlari tomonidan aholi orasidagi zararlanish darajasiga doir muhim empirik materiallar jamlandi. Harbiy shifokorlar olib borgan tadqiqotlar tibbiyot fanining rivojiga sezilarli hissa qo'shib, Turkistonda harbiy xizmatchilar orasida yuqumli kasalliklarni o'rganish va ularga qarshi kurash choralarini takomillashtirishga xizmat qildi. [10; 12] Aholi orasida sanitariya-ma'rifiy ishlar tizimli ravishda olib borildi. Shuningdek, ma'ruzalar, suhbatlar o'tkazildi, gigiyena me'yorlariga rioya qilish bo'yicha varaqalar va ko'rsatmalar tarqatildi. Harbiy shifokorlar sanitariya tadbirlarini tashkil etish va epidemiya oldini olishda faol ishtirok etdilar.

O'lkada shifokorlar soni juda kam, mahalliy aholidan esa bunday mutaxassislar umuman yo'q edi. 1918-yilda bir guruh O'zbek ziyolilari Turkistonda zamonaviy oliy o'quv yurti tashkil etish masalasini ko'tarib chiqdilar va bu masalani ijobiy hal qilishni so'rab Moskvaga o'z vakillarini yubordilar. O'sha vaqtda markaziy hukumatning boshlig'i bo'lgan V.I.Lenin bu masalaga ijobiy qarab, Toshkentda dorilfunun tashkil qilish haqidagi dekretga qo'l qo'ydi. Dorilfunun 1920-yil sentyabr oyida ochildi. Uning tarkibida tibbiyot fakulteti ham bor edi. Shunday qilib, 1920-yilda Turkistonda oliy tibbiy ta'limga asos solingan edi [3; 95]. O'zbekistonda professional tibbiy ta'limning shakllanishi shunchaki o'quv dargohi ochilishi emas, balki xalq salomatligini tizimli himoya qilishga qaratilgan strategik qadam bo'lganini ko'rishimiz mumkin.

Mahalliy kadrlar yetishmovchiligi o'ta dolzarb bo'lgan bir sharoitda, o'zbek ziyolilarining tashabbus ko'rsatib, oliy ta'lim maskani tashkil etishga erishgani milliy tibbiyot uyg'onishiga poydevor qo'ygan. Mahalliy aholi orasidan mutaxassislarning deyarli yo'qligi o'sha davrda milliy kadrlar tayyorlashni hayot-mamot masalasiga aylantirgan edi va bu vazifa qisqa muddatda muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

1918-yilda Toshkentda o'rta tibbiy xodimlar tayyorlovchi «Musulmon tibbiy maktabi» tashkil qilindi. U keyinroq «Respublika o'rta tibbiy xodimlar maktabi»ga aylantirildi. O'sha vaqtda bu o'quv yurtlari butun O'rta Osiyo miqyosida birinchi va yagona tibbiy o'quv yurtlari edilar. Keyinroq bunday tibbiy o'quv yurtlari boshqa shaharlarda va qo'shni respublikalarda ham ochildi.[3; 94] . «Musulmon tibbiy maktabi»ning tashkil etilishi nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyoda professional o'rta bo'g'in tibbiyot xodimlarini tayyorlashning ilk bosqichi bo'lib xizmat qildi. Ushbu muassasaning o'sha davrda yagona ekanligi Toshkentni ilm-fan markaziga aylantirish bilan birga, qo'shni respublikalar uchun ham kadrlar bazasini yaratib berdi. Toshkentdagi ushbu tajriba tez orada Farg'ona vodiysining yirik shaharlariga ham yoyildi; xususan, voha aholisining zichligi va tibbiy ehtiyojlarning yuqoriligi sababli, keyinchalik Qo'qon va Andijon kabi shaharlarda ham shunday o'quv maskanlarining ochilishiga turtki bo'ldi. O'rta bo'g'in xodimlarining tayyorlanishi chekka hududlarda, ayniqsa Farg'ona vodiysidagi qishloq shifoxonalarida birlamchi tibbiy yordam sifatini tubdan yaxshilash imkonini berdi. XIX asr oxiridagi mustamlaka ma'muriyati tomonidan ko'rilgan choralar asosan vaqtinchalik xarakterga ega bo'lib, ular tizimli profilaktika emas, balki faqat kasallik tarqalib bo'lgandan keyingi "o't o'chirish" tadbirlari bilan cheklanar edi. 1921-yil Farg'ona vodiysi hududlarida tif tarqalgan [8; 102] ligi qayd etilgan va bunday holatlar ko'plab takrorlanishi 1922-yilgi birinchi davlat qarorining qabul qilinishini nafaqat tibbiy, balki strategik xavfsizlik masalasi sifatida kun tartibiga chiqardi. 1922-yil 15-sentyabrda RSFSR Xalq Komissarlari Kengashi tomonidan qabul qilingan "Respublika

sanitariya organlari to'g'risida"gi dekret [9; 53] tibbiy xizmatning yangi bosqichga ko'tarilishiga turtki bo'libgina qolmay, endilikda epidemiyalarni oldini olishga va ko'pgina kasalliklarning tugatilishiga ham sabab bo'ldi. Mazkur qaror sanitariya tizimini huquqiy jihatdan mustahkamlashda muhim normativ asos bo'lib xizmat qildi. Hujjat sanitariya shifokorlarining huquqiy maqomi, ularning vakolatlari va majburiyatlari, shuningdek, respublika miqyosidagi sanitariya organlarining tashkiliy tuzilmasi hamda faoliyat yo'nalishlarini belgilab berdi. Sanitariya xizmati o'z tuzilmasida bir necha bor o'zgarishlarga uchragan. Dastlab sanitariya organlari sog'liqni saqlash tizimining majburiy bo'g'inlari sifatida epidemiyalar va ijtimoiy shartlangan kasalliklarga qarshi kurash uchun shakllantirilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS). Mazkur tadqiqot tarixiy jarayonlarni ilmiy asosda yoritishga qaratilgan bo'lib, unda tarixiylik va xolislik tamoyillariga amal qilindi. Tadqiqotda sanitariya-epidemiologiya xizmatining tashkil etilishi va zaruratini aniqlash maqsadida kompleks ilmiy yondashuv qo'llanildi.

Asosiy metod sifatida tarixiy-tahliliy metoddan foydalanildi. Ushbu metod orqali XX asrning dastlabki choragida O'zbekistonda sanitariya-epidemiologiya tizimining vujudga kelishi, uning huquqiy va tashkiliy asoslari hamda amaliy faoliyati tarixiy davrlar kesimida tahlil qilindi. Sanitariya xizmatining shakllanishiga ta'sir etgan ijtimoiy, demografik va hududiy omillar o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqildi. Shuningdek, qiyosiy metod yordamida mustamlaka davridagi sanitariya tadbirlari bilan sovet davrining dastlabki yillarida amalga oshirilgan sanitariya siyosati o'rtasidagi farqlar va o'xshash jihatlar aniqlandi. Bu yondashuv sanitariya-epidemiologiya xizmatining markazlashuvi va institutsional rivojlanishida yuz bergan sifat o'zgarishlarini ochib berishga imkon yaratdi.

1920-yillardan boshlab O'zbekiston hududida sanitariya-epidemiologiya nazoratining institutsional asoslari shakllana boshladi. Dastlab sanitariya nazorati asosan

aholi gavjum bo'lgan hududlar, jumladan bozorlar, jamoat joylari, oziq-ovqat savdosi obyektlari, novvoyxonalar, choyxonalar hamda turar-joy mavzellarining sanitariya-gigiyena holatini nazorat qilish bilan cheklangan bo'lsa-da, keyinchalik ushbu faoliyatning qamrovi sezilarli darajada kengaydi. 1922-yilda qabul qilingan dekret respublika miqyosida sanitariya xizmatini tashkil etish uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qildi. Ushbu hujjatga muvofiq sanitariya shifokorlarining vakolatlari belgilandi, sanitariya organlarining tashkiliy tuzilmasi shakllantirildi hamda yuqumli kasalliklarning oldini olish davlat vazifasi sifatida belgilab qo'yildi. 1922-1924-yillarda respublikada parazitologik stansiyalar tashkil etilib, bezgak, leyshmanioz, rishta, dizenteriya amyobalari va boshqa parazitlar kasalliklarni aniqlash, davolash va oldini olish bilan shug'ullandi. Farg'ona vodiysi hududida sanitariya-epidemiologiya xizmatining rivojlanishi alohida ahamiyat kasb etdi. 1924-yilga kelib respublikada sanitariya shifokorlari faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, ularning soni cheklangan bo'lsa-da, sanitariya nazoratining asosiy yo'nalishlari shakllangan edi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). 1920-yillarning o'rtalariga kelib respublikada ikki bakteriologik laboratoriya, ikki Paster stansiyasi, olti tropik stansiya hamda yigirma yetti tropik punkt faoliyat yurita boshladi. [9;36]. Ushbu muassasalar asosan bezgak, dizenteriya, parazitlar kasalliklar va boshqa yuqumli xastaliklarga qarshi kurashishga ixtisoslashgan bo'lib, sanitariya-epidemiologiya xizmatining amaliy bazasini shakllantirdi.

XX asrning 20-yillaridan boshlab O'zbekiston hududida sanitariya-epidemiologiya nazoratining institutsional asoslari shakllana boshladi. Dastlab sanitariya nazorati bozorlar, jamoat joylari, oziq-ovqat savdosi obyektlari, novvoyxonalar, choyxonalar, hovlilar va yashash hududlarining gigiyenik holatini nazorat qilish bilan cheklangan bo'lsa-da, keyinchalik uning funksiyalari kengaytirildi. Sanitariya organlari sud-tibbiy ekspertiza ishlarini ham amalga oshirib, maxsus sud-tibbiy shifokorlar faoliyati yo'lga qo'yildi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI
(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА /
REFERENCES):

1. Farg‘ona VDA, 1104-fond, 12-ro‘yxat, 85-yig‘ma jild.
2. Martin McKee, Judith Healy, Jane Falkingham (editors). Health care in Central Asia. European Observatory on Health Care Systems, 2002. 378 b.
3. Qodirov A.A. Tibbiyot tarixi. O‘quv qo‘llanma.”O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent 2005. 178 b.
4. Xodjayev N.I, Bulayev Z.K. Davlat sanitariya-epidemiologiya xizmati mustaqillik yillarida, Samarqand: Turon Nashr, 2021. 282 b.
5. Yarmuxamedova N.A va boshq. Epidemiologiya. Harbiy epidemiologiya. Yuqumli kasalliklar epidemiologiyasi, Samarqand: Tibbiyot ko‘zgusi, 2021.
6. O‘z ITTHMDA. R-1-fond, 1-ro‘yxat, 1-tom, 490-yig‘ma jild.
7. O‘z MA, I-1-fond, 12-ro‘yxat, 1741-yig‘ma jild.
8. O‘z MA, R-40-fond, 1-ro‘yxat, 313-yig‘ma jild.
9. O‘z MA, R-40-fond, 1-ro‘yxat, 12-yig‘ma jild.
10. O‘zbekiston Respublikasi sanitariya-epidemiologiya va jamoat salomatligi xizmati (ISSN 2181-3752). 2-son 2021. 48 b.
11. Ниязматов Б.И., Кудашева Л.В., Шоумаров С.Б., Мустафаев Х.М. История организации и развития санитарно эпидемиологической службы в республике Узбекистан. Ташкент:”Узбекистан” 2008. 302 бет.
12. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. (n.d.). Dizenteriya amyobasi.
<https://qomus.info/oz/encyclopedia/d/dizenteriya-amyobasi/>
13. Encyclopaedia Britannica. (n.d.). Anopheles (mosquito genus).
<https://www.britannica.com/animal/Anopheles>